

**CHORVACHILIK MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH  
SAMARADORLIKNI OSHIRISH, UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI  
TIZIMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Olimov Qodirjon Qobiljon ugli**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Iqtisodiyot" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**ARTICLE INFO.**

**Keywords:**

Samaradorlikni, Chorvachilik.

**Annotation**

Chorvachilik – respublikamiz qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ikkinchi o'rindagi tarmog'i hisoblanadi. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, qorako'lchilik, balliqchilik, asalarichilik, yilqichilik andatrachilik tarmoqlari joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalarini uchun go'sht, sut, jun, teri, ichak, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi. Chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Shuning uchun respublika hukumati mamlakatning barcha sohalarida chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbik etish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 23 martda qabul qilingan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 308-qarori. Bu qaror chorvachilikni rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

Chorvachilikdan aholi iste'moli uchun sut, go'sht, yog', tuxum va boshqa mahsulotlar olinadi. Ilmiy asoslangan me'yor bo'yicha jon boshiga iste'mol qilinadigan barcha mahsulotlar oqsilning 60 %, ularning kaloriyaga aylantirilgani esa 30 % ni tashkil etishi zarur.

Oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlarining xom-ashyo bazasining anchagina qismi ham chorvachilik mahsulotlari hisobiga tashkil topadi. Ular qayta ishlashdan jun va ipakli gazlamalar, charm, turli xil oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Aholi tomonidan iste'mol qilinadi.

Chorvachilikning qo'shimcha mahsulotlari (go'ng va boshqalar) o'simlikchilik tarmoqlarida organik o'g'it shaklida va boshqa mahsulotlar uchun ishlatiladi, yerning unumdorligini binobarin ekinlar hosildorligini oshiradi. Demak, o'simlikchilik va chorvachilik tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini

hisobga olib, ularni qo'shib olib borish barcha sotsial iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ma'lum darajada barqarorlashtiradi.

Chorva mahsulotlari qayta ishlashda hosil bo'ladigan qo'shimcha va qoldiqlar ham ozuqa sifatida ishlatiladi.

Ko'rsatish lozimki, chorva mahsulotlari oqsili o'simlik mahsulotlari oqsiliga nisbatan juda qimmat turadi. Chunki, 1 kg sut oqsiliga 3-5 kg ozuqa birligi, mos ravishda tuxum oqsiliga 4-6, mol go'shti oqsiliga esa 15-20 kg ozuqa birligi sarflanadi.

O'zbekistonda yashovchi aholi turmush darajasining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab oshadi, ularni ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish tarmoqning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishga sharoit yaratadi.

Ayrim chorvachilik tarmoqlarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni hisoblash tahlil etish va baholashda ham tafovutlar majud. Binobarin, har bir tarmoqning samaradorligi ishlab chiqarish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Chorva hayvonlari iqtisodiyoti quyidagi guruhleri va turlari bo'yicha o'rganiladi:

1. Qoramolchilik- go'sht va sut yo'nalishi bo'yicha;
2. Qo'ychilik- go'sht, jun, teri yo'nalishi bo'yicha;
3. Echkichilik- jun va tivit, sut yo'nalishi bo'yicha;
4. Cho'chqachilik- bekon, yarim yog', yog'lik go'sht yo'nalishi bo'yicha;
5. Parrandachilik- tuxum va go'sht broyler yo'nalishi bo'yicha;
6. Yilqichilik- go'sht va sut, ish hayvonlari hamda sport yo'nalishi bo'yicha;
7. Tuyachilik- go'sht, jun va sut yo'nalishi bo'yicha;
8. Pillachilik bo'yicha;
9. Asalarichilik bo'yicha;
10. Quyunchilik bo'yicha;
11. Hovuz baliqchiligi bo'yicha;
12. Mo'ynachilik bo'yicha va boshqalar;

So'nggi yillarda chorvachilikda mamlakatda xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgani tufayli keng ko'lamli tashkiliy o'zgarishlar ro'y berdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan rentabelligi past qishloq xo'jalik korxonalari – sovxoz va kolxozlarni qayta tashkil etish

jarayoni chorvachilikka muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Negaki, qoramol parvarish qilayotgan fermalar asosan yirik paxtachilik xo'jaliklarida joylashgan edi. Sovxoz va kolxozlar, keyinchalik shirkatlar negizida shaxsiy qoramoliga ega chorvachilik fermer xo'jaliklari, shuningdek, jamoaviy mulkchilik shaklidagi ixtisoslashgan chorvachilik fermalari tashkil etildi.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shaklining tashkil topish davrida hukumat chorvachilikda fermerlik va dehqonchilik harakatini keng qo'llab-quvvatladi. Aholiga qoramol sotib olish uchun imtiyozli kreditlar, xo'jalik va ozuqa ishlab chiqarishni tashkil etish uchun yer uchastkalari ajratildi: chorva mahsulotlariga davlat buyurtmasi bekor qilindi, naslchilik ishlari rivojlangan xorijiy mamlakatlardan nasldor mollar sotib olindi, omuxta yem ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi respublika aholisi talablarini qondirish maqsadida ichki bozorlarda, cheklangan miqdori esa tashqi bozorlarda sotilmoqda. Kelajakda O'zbekiston Respublikasi tashqi bozorga ko'p miqdorda chorvachilik mahsulotlarini eksport imkoniyatlari mavjud xisoblanib kerarli isloxo'tlar amalga oshirilmoqda. Respublika chorvachiligida ekologik jihatdan barcha talablarga javob beradigan go'sht, sut mahsulotlarini, asal, teri, ayniqsa, qorako'l terisini, jun etishtirishni rivojlantirib, ularni tashqi bozorda sotish mumkin. Bunda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi ham yuksaltiriladi. Natijada tarmoqning mamlakat xalq xo'jaligidagi o'rni, ahamiyati ortadi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda Respublika tarmoqni rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda.

Ushbu hujjatda davlat tomonidan fermerlarga zotdor mollarni sotib olish va naslchilik ishini jadallashtirishda yordam berish, veterinariya xizmat ko'rsatishni tashkil etish, aholining mahsuldor chorva mollarni sotib olishi uchun mikrocreditlar ajratish, qishloq aholisining chorva mollarni parvarish qilishdan manfaatdorligini oshirish orqali ularning bandligini, daromadini, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yuqorida aytilgan 308-qarorda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda, qoramol boqish va yetishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, chorva mollarni boqayotgan shaxslarni ish bilan band aholi toifasiga kiritish va ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hal etilmagani, xo'jaliklarni zotdor, sermahsul chorva mollari bilan, omuxta yem va shirali ozuqa bilan ta'minlash borasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolda, zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilma tarmog'i, shuningdek, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni mikrocreditlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagani qayd etilgan.

Chorvachilik tarmog'ining asosiy yo'nalishlaridan biri bu qoramolchilik xisoblanadi. Qoramolchilikni rivojlantirish to'yimli ozuqalarga nisbatan anchagina arzon o'simlik ozuqa (ko'k o't, dag'al, shirali va boshqalar) resurslaridan foydalanib sut va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Bu tarmoqning samaradorligi, dastavval sigirlarning boshqa ona hayvonlarga nisbatan bir necha barobar ko'p sut berishi bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda hozir rivojlantirilayotgan qora-ola, qizil chul, shvis, kabi asosan zotdor sigirlardan bir yilda 3500-5000 kg sut va ogirligi 30 kg bir bosh buzoq olish potensial imkoniyati mavjud. Laktatsiya davrida har bir sigirdan sog'ib olingan yalpi sutning 5-6 foizi buzog'iga sarflansa, qolgan qismi 12-15 kishini ilmiy asoslangan me'yorda sut va qayta ishlangan sut mahsulot (yog', pishloq, qaymoq, qatiq va boshqa)lari bilan ta'min etishga imkoniyat yaratadi. Olingan buzoqlarni intensiv ozuqlantirilsa uning tirik vazni bir yilda 180-200 kg ga yetadi, mol go'shti va undan qayta ishlangan mahsulot (kolbasa va boshqa)lar bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonning sut balansi aktivida sigir suti 90% dan ortik, go'sht balansida esa -70% dan ortikrog'i mol go'shtidir. Bu mahsulotlarni barcha yoshdagi odamlar iste'mol qiladi, ularni jismoniy baquvvat qiladi va umrini uzaytiradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, 1kg sut oqsiliga qoramol go'shti oqsiliga nisbatan 5-6 marta kam ozuqa birligi sarflanadi. Qoramol podasida sigirlar hissasining ko'payishi tarmoqning samaradorligini bevosita oshiradi.

Qoramol terisidan sifatli chirm tayyorlanadi, oyoq va boshqa kiyimlar ishlab chiqariladi.

Qoramollar qoldig'i go'ngdan foydalanish tuproqning unumdorligini, binobarin, o'simliklar hosildorligini oshiradi.

Demak, qoramolchilikni intensiv rivojlantirish mavjud mehnat, yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishga imkoniyatlar yaratadi va hokazo. Ulardan to'laroq va samaraliroq foydalanish asosiy vazifadir.

Chorvachilik tarmog'ining asosiy yo'nalishlaridan yana biri bu qo'ychilik xisoblanadi. Qo'ylar, qoramol va boshqa hayvonlarga nisbatan serharakat, tuyoqlari va oyoqlari baquvvat, o'tkir tishlari past va siyrak o'sgan o'tlarni, hatto yerga to'kilgan mayda barglarni terib olib istemol qilish qobiliyatiga egadir. Ular achchiq, sassiq hidlik, tikanlik o'tlarni ham iste'mol qiladi. Qo'ylar O'zbekistonda o'sadigan 880 tur o'simliklarning 520 yoki 59% ini, qoramollar esa – 20% iga yaqinini iste'mol qiladi.

Demak, qo'ychilikni rivojlantirish O'zbekistonda mavjud 24-25 mln ga cho'l, yarim cho'l, tog' bag'ri yaylovlari va pichinzorlarida o'sadigan ozuqa resurslaridan to'liqroq foydalanishga sharoit yaratadi

Qo'ylar jazirama issiqqa, qattiqqina sovuqqa, suvsizlikka ham chidamli. Tarmoqni rivojlantirish qo'shimcha kapital qo'yilma, mehnat resurslarini ham talab etmaydi.

Qo'ychilik aholi uchun oziq-ovqat (go'sht, yog', sut), sanoat uchun xom ashyo (jun, qorako'l teri, teri) yetkazib beradi. Junni qayta ishlash jarayonida junli kiyim, trikotaj, sukna, odeyal, gilam, oyoq kiyim va boshqalar tayyorlanadi. Qorako'l teridan telpak, yoqa, po'stin va boshqalar tayyorlanadi; uning terisidan po'stin, yarim po'stin va boshqalar tayyorlanadi; charmidan oyoq va boshqa kiyimlar tayyorlanadi.

Qo'ychilikning xalq xo'jaligi ahamiyati uning itisoslashishiga qarab anchagina tafovut qiladi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda rivojlantirilayotgan qo'y zotlarini quyidagi guruxlarga bo'lib taxlil qilish va iqtisodiy baholash maqsadga muvofiqdir:

- 1-gurux- mayin junli qo'ychilik;
- 2-gurux- yarim mayin junli qo'ychilik;
- 3-gurux- qorako'l teri uchun qo'ychilik;
- 4-gurux- po'stinbop teri beradigan qo'ychilik;
- 5-gurux- go'sht-yog' beradigan qo'ychilik;

O'zbekistonda 1 va 2 guruxlarga kirgan qo'ychilik zotlari juda kam miqdorda rivojlantiriladi. Jun balansini mayin va yarim mayin jun tashkil etadi; kolgan gurux qo'ylaridan dag'al jun olinadi. Barcha turdagi qo'y hamda echkilarning go'shtlari respublika go'sht balansida 10-15 foyizni tashkil etadi.

Qo'ylarning iste'mol qiladigan tabiiy yaylov ozuqalari iqtisodiy baholanmaydi, natijada, odatda, qo'ychilikdan nisbatan arzon oziq-ovqatlar hamda xom ashyolar ishlab chiqariladi. Respublikada ularni qayta ishlash va sotish qo'ychilikning xalq xo'jalik ahamiyatini yanada oshiradi. Qorako'l teri maxsulotlarini jahon bozorida sotish respublika volyuta fondini ko'paytiradi.

O'zbekistonda qo'ychilik noqulay yer va iqlim sharoitlari hamda aholining ko'p yillik tajribasini hisobga olib rivojlantiriladi. Qo'ychilik maxsulotlari, ularning bosh soni va maxsuldorligini oshirish evaziga ko'payadi.

Chorvachilikning asosiy mahsuloti – sut va go'sht ishlab chiqarishning o'sishi jamiyatni rivojlantirish uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir. Negaki, bu mahsulotlar asosiy oziq-ovqat guruhiga kiradi va qishloq aholisi daromadining muhim manbaidir, soha muvaffaqiyatli rivojlanganida esa eksportbop tovarlar hajmi ko'payadi.

Chorvachilik, ayniqsa, qoramol parvarish qilish tarmog'ining qishloq aholisi oilalarining farovonligiga jiddiy ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatdi. Chorvachilikni rivojlantirish chorva mollarning asosiy qismi parvarish qilinayotgan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga ega oilalarga g'oyat samarali ta'sir ko'rsatadi. Dehqon xo'jaliklarining farovonlik darajasi (bitta oila a'zosining o'rtacha daromadi, moddiy ahvolini nazarda tutsak) ekin maydonlari ko'lami va chorva mollari soniga bevosita bog'liq ekanligini namoyon etadi.

Chorvachilik samaradorligi ham oilalar daromadi uchun yanada katta ahamiyatga ega. Daromadi past

va yuqori bo'lgan guruhlar o'rtacha vakillari parvarish qilayotgan chorva mollari sonidagi farq unchalik katta bo'lmasada, chorva mollari sifatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar bo'yicha farq ancha sezilarlidir. Masalan, jon boshiga daromadi yuqori bo'lgan oilalarda qoramollar o'rtacha podasi soni daromadi past oilalardagi poda sonidan ko'p bo'lishi mumkin Boshqacha aytganda, dehqon oilalari farovonligi foydalanilayotgan yer uchastkasi katta-kichikligi emas, balki muayyan darajada chorva mollari sifati va ularni parvarish qilishga ham bog'liqdir.

Shuningdek, qoramol parvarish qilish sektori dehqon xo'jaliklarida chorvachilikning rivojlangan sohasi hisoblanadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, chorvachilik dehqon xo'jaliklarida oilada mablag' jamg'arish va uni ko'paytirishdek o'ziga xos vazifani bajaradi. O'zbekistonda aholi hozircha jamg'arilgan mablag'larni foydali bank omonatlari va qimmatli qog'ozlarga sarflash kabi xizmatlardan keng foydalanmaydi. Bu, ayniqsa, moliyaviy infratuzilmadan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan qishloq aholisiga taalluqlidir. Ular uchun chorva mollarini sotib olish va parvarish qilish o'z mablag'larini sarflash va ko'paytirish uslublaridan biridir.

### Adabiyotlar ro'yxati:

#### Adabiyot kiriting

1. A. Ismoilov, O. Murtazaeva. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). T.: 2002 yil.
2. Jo'raev F. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashqil etish. (darslik) . T. 2004 yil.
3. B. Salimov, K. Hamdamov. Dexqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) T. 2004 yil.
4. N. Olimjonov O., Farmonov T va boshqalar. «Fermerlik faoliyatining xuquqiy va moliyaviy asoslari». T., Universitet 2005 yil.
5. Xakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti (Darslik). – T.: TDIU, 2006
6. O'P. Umrzaqov va b. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: "Iqtisod-moliya" 2007.
7. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish Darslik. -T.: Mehnat, 2008.
8. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: Mehnat, 2009.
9. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T. «Iqtisodiyot». 2009 y.

to a large extent also depends on the quality of the livestock and their care.

Also, the cattle breeding sector is a developed branch of animal husbandry on farms. It should also be noted that livestock farming has a specific function in the family, such as accumulating and increasing family funds. In Uzbekistan, the population does not currently use such services as useful bank deposits and securities. This is especially true for the rural population, who do not have access to extensive access to financial infrastructure. For them, buying and caring for livestock is one way to spend and multiply their money.